

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TAHLIM
VAZIRLIGI**

**70910209 - «NEVROLOGIYA» mutaxassisligi
MALAKA TALABLARI**

Toshkent - 2021

ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

Tibbiyot oliy tahlim muassasalari

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi Tibbiyot va farmatsevtika uzluksiz kasbiy tahlim muassasalararo Muvofiqlashtiruvchi kengash yig‘ilishida mahqullangan.

2021 yil «16» avgust dagi 4 - sonli bayonnoma.

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2021 yil «31» avgust dagi 217 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus tahlim vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy tahlim davlat tahlim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy tahlim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasiga muvofiq ishlab chikilgan va rasmiy mehyoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus tahlim vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	709102209-Nevrologiya magistratura mutaxassisligining umumiy tavsif.....	4
1.1	Qo'llanish sohasi.....	4
1.1.1.	709102209-Nevrologiya magistratura mutaxassisligi malaka talabini qo'llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2	709102209-Nevrologiya mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlari tasnifi.....	4
1.2.1.	709102209-Nevrologiya mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari.....	4
1.2.2.	709102209-Nevrologiya mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	5
1.2.3.	709102209-Nevrologiya mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	709102209-Nevrologiya mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy vazifalari.....	5
2.	709102209-Nevrologiya tahlim mutaxassisligi bo'yicha magistrarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	7
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	7
2.2	Kasbiy kompetensiyalar.....	8
	Bibliografik ma'lumotlar	8
	Kelishuv varag'i.....	9

1. 709102209-Nevrologiya-magistratura mutaxassisligining umumiy tasnifi

709102209-Nevrologiya mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi tahlim shaklida amalga oshiriladi. Mutaxassislik bo'yicha o'qitish kredit-modulg' tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining mehyoriy muddati 3 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. 709102209-Nevrologiya - magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy tahlim tashkilotlari uchun talablar majmuasini ifodalaydi.

1.1.2. 709102209-Nevrologiya Malaka talabning asosiy foydalanuvchilari:

-mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda o'quv reja va fan dasturlarini sifatli ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilash uchun mashul – oliy tahlim muassasalarining professor-o'qituvchilari;

-magistratura mutaxassisligining o'quv reja va fan dasturlarini o'zlashtirish bo'yicha o'quv-tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi barcha xodimlari va talabalari;

-o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy tahlim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari);

-bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

-oliy tahlim muassasasini moliyalashtirishni tahminlovchi organlar;

-oliy tahlim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;

-magistratura mutaxassisliklaridan birini ixtiyoriy tanlash huquqiga ega bo'lgan bakalavrlar va boshqa manfaatdorlar.

1.2. 709102209-Nevrologiya mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi.

1.2.1. 709102209-Nevrologiya mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari.

709102209-Nevrologiya magistratura mutaxassisligi – Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar tahlim tizimi, malaka oshirish, qayta tayyorlash muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish;

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, viloyatlar sog'liqni saqlash boshqarmalari, ilmiy-tadqiqot markazlari, davlat boshqaruvi organlari, sog'liqni saqlash tizimidagi davolash va profilaktika muassasalarini o'z ichiga oladi.

Mutaxassislik bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda magistrarning kasbiy faoliyat sohaslarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.



1.2.2. 709102209-Nevrologiya mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

– sog'liqni saqlash tizimidagi jarayonlar, sog'liqni saqlash tizimiga tegishli dasturlar, standartlar, ilmiy maqolalar, tezislar, ilmiy-tadqiqot ishlari, mehyoriy hujjatlar, ma'lumotnomalar, hisobotlar;

– tibbiyot asbob-uskunalari, dori vositalari, muolajalar, resurslar, vositalar, usul va uslublar majmuasi;

– jamiyat, aholi, oila, bemorlar, tibbiy yordamga muhtoj qariyalar, kattalar va bolalar, ayollar va erkaklar;

– sog'liqni saqlash tizimidagi davolash va profilaktika bo'yicha davlat va xususiy muassasalar, viloyat, shahar, tuman davolash-profilaktika muassasalari rahbarlari va mashul shaxslar;

– ilmiy-tadqiqot va ilmiy-ishlab chiqarish muassasalari va tashkilotlari, tibbiy yordam xizmatlariga ega bo'lgan xususiyligi istalgan shaklda bo'lgan ishlab chiqarish birlashmalarida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar;

– ilmiy tadqiqot jarayoni;

– o'quv jarayoni.

Mutaxassislik bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda magistrning kasbiy faoliyat sohasida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

1.2.3. Mutaxassislik bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari

– ilmiy-tadqiqot faoliyati;

– tashxislash va profilaktik faoliyat;

– tibbiy-ijtimoiy faoliyat;

– tashkiliy-boshqaruv faoliyat;

– tibbiy-ijtimoiy;

– oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash tahlil muassasalarida ilmiy-pedagogik hamda o'rta maxsus, kasb-hunar tahlil muassasalarida pedagogik faoliyat (o'rnatilgan tartibda);

konsalting xizmati faoliyati va shu kabilarni o'z ichiga oladi shu kabilarni o'z ichiga oladi

1.2.4. 709102209-Nevrologiya mutaxassisligi bo'yicha magistrning kasbiy vazifalari:

709102209-Nevrologiya mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohasi, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- ilmiy-tadqiqotlarni o'tkazish, yangi ilmiy hamda amaliy natijalarni olish, olingan natijalarni tahlil qilish va amaliyotga tadbiq qilish;
- echilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning kontseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish.

Davolash va profilaktik faoliyatda:

- bemorlarda ichki ahzolar kasalliklarini aniqlash va (kam invaziyali usullarni qo'shib) davolash;
- tezkor yordam ko'rsatish uchun zarur bo'lgan to'la hajmdagi ko'nikmaga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassis-terapevt sifatida mustaqil amaliy faoliyat ko'rsatish;
- keng tarqalgan terapevtik kasalliklarni kamaytirish uchun profilaktik tadbirlarni amalga oshirish *qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.*

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- bozor iqtisodiyoti sharoitida tibbiy jamoalarni boshqarishni ilmiy va amaliy asosda tashkil qila bilishi;
- axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni egallagan bo'lishi;
- uzluksiz tahlim muassasalarida o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazilishiga ko'maklashish (o'quv personal), tadqiqotlarda ishtirok etish, ma'lumotlarni to'plash, umumlashtirish va tahlil etish, umumiy o'rta, o'rta maxsus va tibbiyot kollejarida hamda oliy tahlim muassasalarida o'quv mashg'ulotlarini o'tish, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni egallash va tatbiq etish bo'yicha guruhlarni boshqarish;
- e-learning va m-learning texnologiyalari asosida korporativ o'qitishni tashkil qilish va korporativ ma'lumotlar bazasini rivojlantirish *qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.*

Tibbiy-ijtimoiy faoliyatda:

- sog'liqni saqlashda ijtimoiy tadqiqotlar uslublaridan foydalanish, aholining ijtimoiy hayot tarzidan kelib chiquvchi muammolar bo'yicha turli xil strategik reja va dasturlar ishlab chiqish, amalga oshirish yo'llarini belgilash va yechimlar qabul qilish;
- ijtimoiy muassasalarda yuzaga keluvchi tibbiy-ijtimoiy nizo holatlaridan chiqish, yechish, ularni boshqarish, holatni baholay olish;
- ijtimoiy himoya organlari va rahm-shavqat xizmatlari bilan hamkorlikda oila va alohida aholi guruhlariga ijtimoiy-gigienik, tibbiyot-demografik va ijtimoiy-psixologik tahdid omillarini hisobga olgan holda xizmat turlarini tashkillashtirish va xizmat *qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.*

Oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash tahlim muassasalarida ilmiy-pedagogik hamda o'rta maxsus, kasb-hunar tahlim muassasalarida pedagogik faoliyatda (o'rnatilgan tartibda):

- oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar tahlimi tizimining tahlim muassasalarida mutaxassislikka oid tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini, jumladan o'quv ustaxonalarida o'tkazish;

- o'quv fanlarini o'qitish metodikasini egallashi;
- zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib noanhanaviy o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;
- o'qitilayotgan fanlar bo'yicha darslarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik hujjatlarni tuzish, tayyorlash va rasmiylashtirish;
- o'qitilayotgan fan bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish;
- mustaqil tahlil va ijodiy qidiruv natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi metodlar, vositalar va boshqa sohalarida o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish;
- elektron (e-learning) va mobil (m-learning) o'qitish uchun o'quv-metodik majmualarni ishlab chiqish;
- uzluksiz tahlil tizimining Davlat tahlil standartlari, Davlat talablari va boshqa o'quv-mehyoriy hujjatlarni ishlab chiqish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.


Konsalting xizmati faoliyatida:

- mutaxassisliklar bo'yicha sog'liqni saqlash tizimlari sohasida mavjud holatning analitik sharhini ishlab chiqish;

2. 709102209-Nevrologiya tahlil mutaxassisligi bo'yicha magistrning kasbiy kompetentsiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetentsiyalar:

- ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosini, davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi;
- ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil taxlil qilish;
- milliy mahnaviy va umuminsoniy qadriyatlar bo'yicha o'z nuqtai nazarini og'zaki va yozma bayon etishi, milliy g'oyaning nazariy asoslarni anglagan holda "Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot qurish" bosh g'oyasining mohiyatini hamda uning asosiy g'oyalar bilan mutanosibli va farqini bilishi;
- tabiat va jamiyatda yuz berayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi, insonning mahnaviy qiyofasi haqida bilimlarga ega bo'lishi, ulardan hayotda va kasbiy faoliyatida hamda zamonaviy ilmiy-tadqiqotlarda foydalana olishi;
- shaxsning inson, jamiyat, atrof muhitga bo'lgan munosabatini tartibga soluvchi huquqiy va axloqiy mehyorlarni kasbiy faoliyatida qo'llay olishi;
- yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtira olishi, takomillashtirishi va o'z mehnatini ilmiy asosda tashkil qila bilishi;
- o'zining individual bilimlariga tayangani holda ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni tushunishi va ularni tahlil qilishi;
- o'z faoliyatida mehyoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana bilishi;
- fikrlash madaniyati, muayyan tafakkur uslubiga, og'zaki va yozma nutqini aniq bayon qilish;
- o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqishi va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;



- ilmiy faoliyati natijalarini xis qilishga yo'naltirilgan ijtimoiy mashuliyat shakllangan bo'lishi;
- kasbiy faoliyatda o'zlashtirgan fanlarning asosiy qonunlaridan foydalanishi, uslublarni tasniflashi, metodologik tamoyillardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;
- xorijiy tillardan birini ilmiy muloqot va kasbiy malaka almashish vositasi sifatida egallagan bo'lishi;
- axborotni to'plash, saqlash, ularga ishlov berish va ulardan foydalanish usullarini egallashi;
- o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;
- axborot, bilim, mahlumotni bir-biridan farqlash malakasiga ega bo'lishi, axborot texnologiyalaridan foydalana olishi;
- bugungi axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish;
- internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompg'yuter bilan ishlash;
- pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishi;
- tahlim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashuv shakllangan bo'lishi;
- ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda ehlon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlashi;
- davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan ehlon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi lozim.

2.2. Kasbiy kompetentsiyalar:

- markaziy va periferik asab tizimining patologiyalarining nozologik shakllari va ularning belgilanishi;
- nevrologik kasalliklar natijasida nogironlik guruxini aniqlash va sabablarini bilish, ishga layoqatligini aniqlash;
- turli xil markaziy va periferik asab tizimining kasalliklari bor bemorlarni dispanserizatsiyasi uslubini qo'llash;
- tibbiyot xujjatlarini to'g'ri olib borish;
- bemorlarni reabilitatsiya usullarini bilish;
- bosh miya, orqa miyavaperiferik nerv sistemasining qon tomir kasalliklari hakida tasavvurga ega bo'lishi;
- nevrologik tekshiruv o'tkazishni;
- markaziy va periferik asab tizimini anatomo-funksional xususiyatlari: asab tizimini ontogenez va filogenezi, asab hujayrasini morfologiyasi, periferik nervning tuzilishi, orqa miyani morfofunksional xususiyati, orqa miya zararlanish sindromlari, bosh miya ustuni morfofunksional xususiyati, zararlanish sindromlari (ustunni alg'ternirlashgan sindromlari), tuzilishi, funksional xususiyatlari, bosh miya katta yarim sharlar po'stlog'ini tsitoarxitektonikasi (Brodman bo'yicha chiziqlar, oliy miya funktsiyalarining joylashishi), orqa va bosh miya kobiqlarini tuzilishi va fuktsional xarakteristikasi, markaziy asab tizimini angioarxitektonikasi;

- harakat sferasi va uning zararlanishi: piramida tutami yo'lining morfofunktsional tuzilishi, tekshirish usullari va zararlanish sindromlari, ekstrapiramidal tutam yo'lining morfofunktsional xususiyatlari, tekshirish usullari va zararlanish sindromlari, miyachaning tuzilishi va funktsional xususiyatlari, tekshirish usullari va zararlanish sindromlari;

- sezgi sferasi va uning zararlanishi: periferik retseptorlar tuzilishi va funktsiyasi, og'rik va temperatura sezgi yo'llari, tekshirish usullari va zararlanish sindromlari, chuqur-taktil sezgi yo'llari, tekshirish usullari va zararlanish sindromlari, sezgi buzilish turi va semiotikasi, reflekslar va ularning buzilishi, fiziologik reflekslar, reflektor xalqa, reflekslar klassifikatsiyasi, tekshirish usullari va ularning diagnostika uchun ahamiyati, patologik reflekslar;

- bosh miya nervlari: anotomo-fiziologik xususiyati hidlov, ko'ruv, ko'z harakatlantiruvchi, uch shoxli, yuz, dahliz-chig'anok, til-yutqun, adashgan, qo'shimcha, til osti nervlarning zararlanish simptomlari, miya ustunining zararlanishida alg'ternirlashgan sindromlar, bulg'bar va psevdobulg'bar sindromlar;

- oliy miya funktsiyalari va ularning buzilishi;

- vegetativ nerv tizimi va zararlanish sindromlari: segmentar va segment usti qismlarining tuzilishi va funktsiyasi, zararlanish simptomlari, simpatik va parasimpatik qismlarning funktsional xususiyatlari, zararlanish simptomlari, tekshirish usullari;

- klinik nevrologiyada funktsional tekshirish usullari: elektroentsefalografiya, elektro neyromiografiya, exoentsefaloskopiya, reoentsefalografiya, ulg'tratovush dopplerografiya, rentgendiagnostika, kompyuter tomografiyasi, magnit rezonans tamografiya, likvorodiagnostika, braxiotsefalomirlarning ulg'tratovush dopplerografiya natijalarini interpretatsiya qilishni ***bilishi va ulardan foydalana olishi***;

- kasallarni kliniko-nevrologik tekshirish va anamnez yig'ishni yuqori darajada o'tkazish, turli nevrologik kasalliklarda bemorlarni yuksak darajada olib borish va kuzatish;

- tekshiruv hajmini aniqlash bilan dastlabki tashxisni shakllantirish;

- zarurdavo-diagnostik muolajalarni tanlash, reanimatsion choralarni ishlab chiqish va o'tkazish;

zarur tibbiy hujjatlarni olib borish (ambulator karta, kasallik tarixi)

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Dalillarga asoslangan tibbiyot, tadqiqot usullari, analitik tadqiqotlar, kogort, xodisa - nazorat, randomizatsiya, nisbiy xavf, shanslar nisbati, sifat, sifatni oshirish tamoyillari, kontsepsiyalari, menejment, menejer, boshqaruv, yetakchilik, tashkilot, motivatsiya, normal anatomiya, patologik anatomiya, operativ xirurgiya, topografiya, metaplaziya, autopsiya, gistologiya, fizik tekshiruv usullari, kompg'yuter tomografiya, ulg'ratovush tekshiruv usullari.

Asab kassalliklari,nevrologiya,bosh miya,orka miya, pereferik nerv sistemasib markiziy nerv sistemasi, vegetativ nerv sistemasi, topik diagnostika, neuro-degenerativ kassalliklar,asab tizmi usmalari,asab tizmi yalliglanish kassalliklari,sust kechuvchi infeksiyalar,nasliy kassalliklar.